



MIGRATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA HUQUQI HAMDA ULARNING SOTSIOLOGIK TALQINI

G'aniyev Farrux Taxirjanovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati kafedrasida katta o'qituvchisi Toshkent, 100197,

O'zbekiston, e-mail: fargan77@bk.ru

orcid.org/0009-0005-2423-050X

G'aniyeva Gulandon Ibragimovna

Namangan davlat universitetining Psixologiya (faoliyat turlari
bo'yicha) yo'nalishi 2-kurs magistranti

Shukridillayeva Sevara Elmurod qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi Huquqbuzarliklar
profilaktikasi faoliyati ixtisosligi bo'yicha tahsil olayotgan 3-o'quv

kursi 313-guruh kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14241980>

ARTICLE INFO

Received: 19 th November 2024

Accepted: 20th November 2024

Published: 29th November 2024

KEYWORDS

*Migratsiya, xalqaro
migratsiya, demografiya, aholi
migratsiyasi, ichki migratsiya
va tashqi migratsiya*

ABSTRACT

*Ushbu maqolada migratsiya va migrant
tushunchasi, migratsiyaning vujudga kelishi, turlari
hamda xalqaro migratsiyaning ahamiyati,
migratsiyaning ichki va tashqi sabablari va turlari, aholi
migratsiyasining jarayonlari, aholi migratsiyasining bosh
sabablari va xalqaro migratsiya haqida fikrlar bayon
etilgan.*

Migratsiya shaxslarning doimiy yoki vaqtincha yashash joyini o'zgartirish maqsadida bir hududdan ikkinchi hududga ko'chib o'tishini anglatuvchi tushuncha sifatida ko'p ishlatiladi.

Migratsiya atamasi lotincha *migratio* – ko'chaman, joyimni o'zgartiraman ma'nosini anglatadi.

Migratsiya-bu odamlarning turli sabablarga ko'ra yashash joyidan boshqa joyga ko'chishi. Migratsiya odamlarning ma'lum bir hududdan tashqariga doimiy yoki vaqtinchalik yashash joyiga ko'chib o'tishi bilan sodir bo'ladi. Aholining ijtimoiy, iqtisodiy, ekologik, siyosiy, diniy, harbiy va boshqa sabablarga ko'ra migratsiyasi tashkiliy (davlat va boshqa ijtimoiy tuzilmalar ishtirokida) va uyushmagan (migrantlarning o'zlari tomonidan) bo'lishi mumkin.¹

Migratsiyaning tasnifi doimiy ravishda mutaxassislarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa XXI asrda bu global muammo sifatida, sotsiologiya, demografiya, iqtisod va psixologiya kabi soha vakillari tomonidan tadqiq etilmoqda. So'nggi paytlarda u global miqyosga ega bo'lib, unga aloqador mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga kata ta'sir ko'rsatmoqda.

Odamlar qadimdan turli hududlarga ko'chib yurgan. Turli omillar- urush, tabiiy ofatlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklar insonlarni o'z yashash joyini o'zgartirishga majbur qilgan.

Xalqaro migratsiya tashkiloti ta'rifiga ko'ra, o'zining huquqiy maqomi, ixtiyoriy yoki noixtiyoriy ko'chishi, ko'chish sabablari yoki biror davlatda qolish muddatidan qat'iy nazar o'z yashash joyini tark etgan hamda xalqaro yoki ichki chegaralarni kesib o'tgan har qanday shaxs

¹ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya>.

migrant hisoblanadi. Biroq, shu joyda migrant va qochqin tushunchasini bir-biridan farqlab olish lozim. Migrantlar qochqinlardan farqli o'laroq boshqa davlatlarga ta'qiblar yoki o'z hayotiga xavf tug'ilishi ortidan ketmaydi. Ularning asosiy maqsadi — turmush tarzini yaxshilash, yaxshi ish topish yoki ta'lim olish. Migrantlarning katta qismi qonuniy migratsiya yo'llarini tanlaydi, ammo ular orasida u yoki bu davlatga noqonuniy kanallar orqali borganlar ham bor.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 2022 yilda dunyoda 281 mln migrant bo'lib, bu sayyora aholisining 3,6 foizini tashkil etadi. So'nggi yillarda xalqaro migratsiya masshtabi keskin oshib bormoqda: 2020 yilda sayyorada 1970 yilga nisbatan 3 barobar ko'p muhojirlar bo'lgan.

Migratsiyaga sabab bo'layotgan eng katta faktor sifatida iqtisodiy vaziyatni ko'rsatish mumkin. Aksariyat odamlar yana-da yaxshi hayot ilinjida o'z vatanini tark etishga majbur. Shubhasiz, ular borayotgan davlati va o'z mamlakati taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shmoqda.

Umuman olganda, 60 foizga yaqin aholi yaxshiroq yashash maqsadida Yevropa va Osiyoga yo'l oladi. Yevropada 87 mln mehnat muhojirlari bor, Osiyoda esa 86 mln. Undan keyingi o'rinda Shimoliy Amerika turadi, bu yerda 59 mln mehnat migrantlari bor.

Muhajirlarning kelib chiqish davlatlariga e'tibor berilsa, ularning 40 foizi Osiyoning olti davlatidan: Hindiston, Xitoy, Bangladesh, Pokiston, Filippin va Afg'oniston. Meksikalik muhojirlar hindistonliklardan keyin ikkinchi o'rinda tursa, rossiyaliklar xalqaro migrantlar orasida 3 o'rinni egallaydi.²

Migratsiya ichki (yani bir mamlakatning ichida ayrim rayonlar o'rtasida, qishloqdan shaharga) yoki tashqi (bir mamlakatdan ikkinchi mamlakatga, bir qit'dan ikkinchi qit'aga) bo'lish mumkin. Migratsiya, shuningdek, doimiy hamda vaqtincha (shu jumladan mavsumiy bo'ladi.) Vaqtinchalik migratsiy- bu ma'lum vaqtdan keyin muhojir o'z vataniga qaytishi kerak bo'lgan shartlar bilan bog'liq. Vaqtinchalik migrantlarning maqsadi yangi yashahs joyi topish emas, balki yaxshi maosh oladigan ish topishdir. Mavsumiy migratsiya – bu chet el fuqarosining mamlakatda bo'lishi mavsumiy ishlarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan va bir necha oydan ortiq davom etmaydigan hodisa.

Aholi migratsion harakatining sabablari xilma-hil bo'lishi mumkin. Aholini bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishga majbur qiluvchi sabablardan eng muhimlari ikkita:

-iqtisodiy sabablar (masalan, ish qidirib yoki moddiy axvolini yaxshilash maqsadida bir rayondan ikkinchi rayonga yoki boshqa mamlakatga ko'chish

-siyosiy sabablar (siyosiy, milliy yoki diniy etiqodga ko'ra quvg'in ostiga olinishi natijasida, davlatlar o'rtasidagi chegaralarning o'zgarishi yoki xarbiy harakatlar davom etgan rayonlardan boshqa joylarga ko'chib o'tish, davlatlar o'rtasidagi millatlar vakillarini ayirbosh qilish kabilar).

Ichki migratsiyalar mamlakatlar aholisining ko'payishi va kamayishiga ta'sir ko'rsatmaydib balki aholining mamlakat xududi bo'ylab shahar qishloq o'rtasida qayta taqsimlanishga olib keladi holos.

Tashqi migratsiyalar esa, aksincha bir mamlakat, xatto aholisining ko'payishiga sababchi bo'ladigan muhim omil hisoblanadi.

Xalqaro migratsiyasi 6 guruhga ajratiladi:

1.Oilaviy va boshqa sabablarga ko'ra doimiy yashahs maqsadida bir davlatdan boshqa davlatga ketgan emigratlar;

2.Migrant mehnatkashlar;

3.Nolegal immigrantlar;

4.Qochoqlar;

5.Talabalar ilmiy hodimlar, tadqiqotchilar.;

² <https://zamon.uz/detail/migratsiya-kelib-chiqish-sabablari-qochqinlar-va-migrantlar-farqi-muhajirlar-uchun-eng-maqbul-davlatlar-maxsus-ruknlar>

6. Turli maqsadda ko'chib yuruvchilar –turistlar, dam oluvchilar, anjuman qatnashchilari.³

Migratsiya huquqi inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanishi bilan birga uzoq rivojlanish tarixiga ham ega. Qadimgi davrlarda u ko'proq fuqarolik maqomi, muqim yashash joyini tanlash, erkin harakatlanish tushunchalari sifatida ishlatilgan.

O'zbekistonda migratsiya huquqi mustaqillik yillaridan boshlab rivojlanib, aholi migratsiyasi o'sa boshladi va ushbu jarayonni tartibga solish va mustahkamlashga qaratilgan institutlar vujudga keldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ni "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlarini yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi" yurtimizda migratsiya huquqi rivojlanishining yangi davrini ochib bergan farmon bo'ldi. 2017 yil O'zbekistonda migratsiya huquqi sohasida tub burilish va rivojlanish yili bo'ldi, jumladan, passport-viza, xorijga chiqish-kirish tizimi tubdan takomillashtirildi. Pasport tizimini takomillashtirish orqali xorijga chiqish uchun ruxsatnoma (stiker) rasmiylashtirish tartibini bekor qilish yuzasidan Prezident farmoni imzolandi va Farmon ijrosi asosida migrantlarimizga qulay shart-sharoit va qulayliklar yaratildi, migrantlar huquq va erkinliklari yanada mustahkamlandi, chegara va bojxona xizmatchilarining ish faoliyati yanada takomillashtirildi va turizm sohasi yanada jadal sur'atlar bilan rivojlana boshladi.

O'zbekiston fuqarolarining konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash maqsadida Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulk olishda O'zbekiston Respublikasi fuqarolari uchun ushbu hududda doimiy yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olinganligi talab qilinmaydigan, shuningdek, doimiy yashash va vaqtincha turarjoyi bo'yicha ro'yxatga olish tartibini buzganlik fuqarolarni tegishli hudud va manzildan chiqarib yuborishga asos bo'lmaydigan bo'ldi. Chegara nazoratidan o'tish jarayoni muddatini qisqartirishga qaratilgan pasport va chegara nazorati mexanizmini avtomatlashtirish, "elektron-darvozalar" (E-Gate) tizimi joriy etildi. Xorijdagi vatandoshlar uchun O'zbekistonga kelib-ketish, mamlakatda qolish, mehnat faoliyatini olib borish, investitsiya kiritish uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish uchun "Vatandosh" vizasi/pasporti, iqtisodiyotimizga investitsiya olib kirmoqchi bo'lgan xorijiy davlatlar fuqarolari uchun maxsus investitsion viza joriy etildi. 2020-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga Toshkent shahri va Toshkent viloyatida ko'chmas mulkka ega bo'lishda doimiy propiska mavjudligi haqidagi talab bekor qilindi. Biometrik pasport infratuzilmasi negizida Respublika fuqarosining biometrik pasporti o'rniga identifikatsiyalash ID-kartalarini berish tizimi joriy etildi.

Xorijga mehnat migratsiyasiga ketayotgan va xorijiy til hamda kasblar bo'yicha malaka imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan fuqarolarimizga rag'batlantirish tizimi joriy etildi. Xorijiy tillar yoki kasblarga o'qigan va tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga ketayotgan, "Labor-migration" dasturiy majmuasida ro'yxatdan o'tgan fuqarolarga xorijiy tillar yoki kasb bo'yicha muvaffaqiyatli topshirilgan malaka imtihoni harajatlarini to'lab berish, xorijga ketish uchun transport chiptalarini xarid qilishga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida subsidiya berish tartiboti yo'lga qo'yildi. Rivojlangan davlatlarga, jumladan, Yevropa mamlakatlari, Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Yaponiya, Avstraliyaga tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasiga jo'nayotgan fuqarolarga ushbu mamlakatlarda mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun "ishchi viza"ni rasmiylashtirish xarajatlari qoplab beriladigan bo'ldi. Toshkent shahrida Migratsiya bo'yicha xalqaro tashkilotning nufuzli vakolatxonasi ochildi va ushbu vakolatxona bilan hamkorlikda 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni faollashtirish, mehnat migrantlarni huquq va erkinliklarini himoya qilishda kafolatlangan tenglik me'zonlariga erishish yo'lida qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

³ <file:///C:/Users/user/Downloads/Lecture%20-%207.pdf>

Rasmiy ma'lumotlarga qo'shimcha ravishda, rasmiy ishlash yoki yashash uchun ruxsatnomasiz, norasmiy ishlash va boshqa viza sxemalari doirasida, xususan, Rossiya Federatsiyasiga ishlash uchun ketgan kishilar ham bo'lganligi xabar qilingan (Ryazansev va boshqalar, 2021). Yana bir ko'rsatkich sifatida, Turkiya Migratsiyani boshqarish agentligi (MBR) ham, Turkiya hududida tartibga solinmagan tarzda faoliyat yuritayotgan o'zbek migrantlarining soni 2022-yilda 7553 nafar, 2023-yil avgust holatiga ko'ra esa, 4954 nafar bo'lganini qayd etganini keltirishimiz mumkin. Ushbu tendensiyalarni yanada yaxlitroq tushunish va umumiy ko'rinishga keltirish uchun O'zbekistonning rasmiy statistikasini Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston, Turkiya Respublikasi va Koreya Respublikasi milliy statistika idoralari rasmiy statistik ma'lumotlari bilan to'ldirish alohida ahamiyatga ega. O'zbekistondan ketgan migrantlar uchun beshta asosiy mamlakat Rossiya Federatsiyasi (1,1 million), keyingi o'rinlarda Qozog'iston (296 ming), Ukraina (223 ming), Turkmaniston (67 ming) va Amerika Qo'shma Shtatlari (63 ming) bo'ldi (BMT DESA, 2021). Biroq 2022-yilda O'zbekiston fuqarolari quyidagi asosiy mamlakatlarga doimiy yashash uchun ko'chib o'tgan: Qozog'iston (79,5 foiz), undan so'ng Rossiya Federatsiyasi (16,4 foiz), Markaziy Osiyo davlatlaridan tashqari boshqa yo'nalishlar (2,7 foiz), Qirg'iziston (0,7 foiz), Tojikiston (0,5 foiz) va Turkmaniston (0,3 foiz)ni tashkil etdi (O'zStat, 2023). Aytish joizki, migratsiya masalalari o'z ichiga faol, o'rta yosh va yosh aholini qamrab oladi. Mutasaddi idora tomonidan tashqi migratsiyaga moyil bo'lgan aholining rasmiy statistikasi ishlab chiqiladi va chet el davlatlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan Respublika fuqarolarining doimiy monitoringi olib boriladi. Noqonuniy migratsiya asosida mehnat faoliyatini olib borayotgan aholining monitoringini yuritish va tahlil qilish murakkab, chunki bu borada bir qancha mutasaddi organlar jumladan, IIV, o'zini o'zi boshqarish organlariga topshiriqlar berilgan bo'lsa-da, aniq va muvofiqlashtirilgan statistikasi yaratishda kamchiliklar kuzatiladi.

So'nggi besh yilda xorijiy investitsiyalar ishtirokida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha bir qancha loyihalar ishlab chiqilishi, yetuk malakaga ega mutaxassis sifatida chet el fuqarolarining O'zbekistonga migratsiya oqimlarini ko'paytirdi. Birgina 2019-yilda 2639 ta korxonaga ishchi kuchini jalb qilish va undan foydalanish uchun ruxsatnomalar, 10315 ta xorijiy fuqarolarga mehnat faoliyati tasdiqnomasi berilgan.

O'zStat ma'lumotlariga muvofiq, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, mamlakat aholisining umumiy soni 36 million kishini, migrantlar soni esa 2,3 million nafarni tashkil etib, ulardan 1,1 million nafari erkaklar va 1,2 million nafari ayollardir. 2022-yilda migrantlar soni 2018-yilga nisbatan 21 foizga kamaydi (O'zStat, 2023). 2020-2021-yillardagi pasayish COVID-19 tarqalishini oldini olish uchun dunyo bo'ylab kiritilgan safar cheklovlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. 2022-yilda O'zbekiston hududida ro'yxatga olingan ichki migratsiya soni 214 821 nafarni tashkil etdi, shundan 40 foizi (85,6 mingga teng) erkaklar va 60 foizi (129,2 ming) ayollardir. 2022-yilda ichki migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 34,1 foizga oshdi (O'zStat, 2023). 2022-yilda 2,3 million kishini tashkil etgan xalqaro migrantlar oqimi 2018-yilga nisbatan 20,7 foizga kamaydi: bunda 52 foizini ayollar, 48 foizini erkaklar tashkil etdi (O'zStat, 2023). Hududiy taqsimotga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekiston hozirgi vaqtda qishloq joylaridan shaharlarga doimiy ichki migratsiyaning yuqori darajasini boshdan kechirmoqda. Yangi ko'chib kelganlarning 76 foizi (164,3 mingga teng) ichki va xalqaro miqyosda shaharlarda, qolgan 24 foizi (50,5 ming) qishloq joylarda istiqomat qilgan (O'zStat, 2023). O'zStat ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda respublikadan chet elga, boshqa manzilga ko'chib o'tganlar soni 880 ming nafarni tashkil etgan. Xuddi shu manbaga ko'ra, 2022-yilda O'zbekistondan ketganlar soni 2018-yilga (1,76 million) nisbatan ikki barobarga (880 ming) kamaygan. 2022-yilda immigratsiyaning gender tarkibi deyarli teng bo'ldi: 53 foizi ayollar, 47 foizi erkaklar (O'zStat, 2023). O'zbekistonlik migrantlar uchun ular boradigan barcha mamlakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar cheklangan bo'lsa-da, Rossiya Federatsiyasidagi mehnat migrantlari soni o'zgarishining bir qancha omillari quyidagilardan iborat: birinchidan, migrantlarning asl mamlakatlaridagi umumiy iqtisodiy vaziyat va Rossiya Federatsiyasidagi

ish beruvchilarning ehtiyojlari; ikkinchidan, Rossiya Federatsiyasiga kirish tartibi, ro'yxatdan o'tish tartiblari va Rossiya mehnat bozoriga kirish; uchinchidan, mehnat bozorida vaziyatni tartibga solish maqsadida Rossiya hukumati tomonidan migrantlarni ishga joylashtirishga nisbatan kiritilgan cheklovlar ("to'siqlar") (iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha bandlik kvotalari, patent narxi). Ko'pincha bu va boshqa omillarning yig'indisi migrantlarning tartibga solingan va tartibga solinmagan migratsiya maqomi o'rtasida harakatlanishiga olib keladi. Rossiya Federatsiyasi Ichki ishlar vazirligining Migratsiya masalalari bosh boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda Rossiya Federatsiyasida ro'yxatga olingan migrantlar va mehnat migrantlari soni COVID-19 pandemiyasi bilan bog'liq cheklovlar tufayli qariyb ikki barobarga kamaygan. Rossiya Federatsiyasi koronavirus tarqalishining oldini olish maqsadida 2020-yil 20-martdan boshlab rejali havo qatnovlarini to'xtatganligi sababli, davlatlar o'rtasida faqat charter (birinchi navbatda, chiqish) reyslar amalga oshirilgan bo'lib, pandemiya davrida ko'plab mehnat migrantlari Rossiya Federatsiyasini tark eta olmadi. Rossiya hukumati xorijiy fuqarolarning COVID-19 pandemiyasi davrida mamlakat hududida bo'lish imkoniyatini bir necha bor uzaytirdi, jumladan 2020-yilning 15-iyuniga qadar, 2020-yilning 25-dekabrigha qadar, 2021-yilning 15-iyuniga qadar va so'nggi bor 2021-yilning 30-sentabrigha qadar uzaytirildi. Tabiiyki, bunday sharoitda Markaziy Osiyo davlatlaridan Rossiya Federatsiyasiga mehnat migrantlarining oqimi keskin kamaydi. Faqat 2021-yil 1-apreldan boshlab O'zbekiston fuqarolari uchun chegaralar ochildi. O'zStat ma'lumotlarga ko'ra, 2022-yilda o'zbekistonlik migrantlar oqimi 221 ming nafarga teng bo'lgan: jami immigrant oqimining 60 foizini (132,8 ming nafar) ayollar, 40 foizini (88,5 ming nafar) erkaklar tashkil etgan. O'zbek migrantlarining asosiy qismi shaharlardan 66 foiz (145,8 ming), qolgan 34 foizi qishloq joylardan (75,5 ming) bo'lgan (O'zStat, 2023)

Migratsiya jarayonini muvofiqlashtirish uchun bir qancha dolzarb masalalarga yuzlanish va muammolar tahliliga yuzlanish zarur, jumladan

Eng avvalo, mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talab o'rtasidagi tafovutni kamaytirish;

Ushbu muammo va sohaga oid yangicha "yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish;

Noqonuniy migratsiyani va noqonuniy tashqi mehnatni tartibga solish;

Migratsiya jarayonlarini va byurokратиyani aholi uchun soddalashtirish va aholining barcha qatlamlariga "to'rtinchi hokimiyat" - ommaviy axborot vositalari orqali tushuntirish ishlarini olib borish;

Yoshlarning sohada amalga oshirilayotgan islohotlar va o'zgarishlarga tayyorligini o'rganish va tahlil etish orqali qanchalik ijobiy ta'sir ko'rsatishning psixologik-innovatsion yechimlarini asoslash;

Aholi turmush darajasini yana ham oshirish va ular bilan doimiy muloqot va uchrashuvlarni tashkil etish;

Migratsiya sohasidagi davlat boshqaruviga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash va ushbu sohani raqamlashtirishni huquqiy tartibga solish;

Ushbu muammoni ijobiy hal etgan va migratsiya tamoyillarini muvofiqlashtira olgan rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rgangan holatda yangi innovatsiyalarni hayotga tadbiiq qilish;

Migratsiya masalalarini tahlil qilish va statistic ma'lumotlarni ishlab chiqish uchun tegishli davlat organlari, migratsiya bilan shug'ullanuvchi xususiy kompaniyalar va tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yishi, ular bilan umumiy va yakdil platforma yaratish.

Migratsiya jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha xalqaro huquqiy hujjatlar hamda migratsiya tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etish bo'yicha xorijiy davlat tajribalarini ayrim xalqaro xujjatlar va davlatlar misolida tahlil qilgan holda, migratsiya sohasida xalqaro miqiyosida tizimli ishlar olib borilayotganini yodda tutish lozim. Butunjahon migratsiya siyosati va uni amalga oshirish tamoyillari va tendentsiyalari bo'yicha yagona kelishuvga erishilmagan bo'lsa-da, barcha davlatlar tomonidan migratsiyani tartibga solish bo'yicha

yangi metodlarni ishlab chiqish va har bir mamlakat migratsiya sohasiga yangi va zamonaviy texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi migratsiya borasidagi muammolarni hal qilinishiga muhim omil bo'lishi mumkin.⁴

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Migratsiya>.
2. <https://zamon.uz/detail/migratsiya-kelib-chiqish-sabablari-qochqinlar-va-migrantlar-farqi-muhajirlar-uchun-eng-maqbul-davlatlar-maxsus-ruknlar>
3. <file:///C:/Users/user/Downloads/Lecture%20-%207.pdf>
4. <https://www.uwed.uz/uz/news/185>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"
6. G'aniev F. T. O 'ZBEKISTONDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MILLIY PREVENTIV MEKANIZMI //Results of National Scientific Research International Journal. – 2024. – T. 3. – №. 3. – S. 84-90.
7. Ganiev F. O'g'irlik jinoyatlarining profilaktikasi tushunchasi va turlariga oid ayrim mulohazalar //Evraziyskiy jurnal prava, finansov i prikladnykh nauk. – 2023. – T. 3. – №. 4. – S. 37-42.

INNOVATIVE
ACADEMY

⁴<https://www.uwed.uz/uz/news/185>